



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-sentyabr

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 1877,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 212,8 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2246,4 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keldi.


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1877,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,7 %) tashkil etdi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida oldingi yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (92,3 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (39,1 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (243,2 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar-jami	1877,6	121,1
Shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	110,6	111,7
Moliyaviy xizmatlar	450,8	212,8
Transport xizmatlari	320,6	102,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>302,0</i>	<i>102,6</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	41,8	108,9
Savdo xizmatlari	557,6	106,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	48,7	101,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	81,4	99,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	27,0	106,2
Ijara xizmatlari	42,3	105,2
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	50,9	103,8
Shaxsiy xizmatlar	46,4	101,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	31,6	102,8
Boshqa xizmatlar	67,9	113,6

**2019-yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	1877,6	121,1
<i>shaharlar:</i>		
Guliston shahri	998,9	134,4
Shirin shahri	24,1	109,1
Yangiyer shahri	134,3	106,5
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	79,1	111,5
Guliston tumani	58,4	108,3
Mirzaobod tumani	90,1	112,4
Oqoltin tumani	42,8	108,9
Sardoba tumani	54,9	100,6
Sayxunobod tumani	100,0	111,8
Sirdaryo tumani	223,0	108,7
Xovos tumani	72,0	109,9

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




2019-yil yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (212,8 %), boshqa xizmatlar (113,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,7 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (108,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida Guliston shahri (998,9 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 134,4 % ni tashkil etdi.


Eng kichik hajm Shirin shahrida (24,1 mlrd. so'm), Oqoltin (42,8 mlrd. so'm) va Sardoba tumanlarida (54,9 mlrd. so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (134,4 %), Sayxunobod (111,8 %) va Boyovut tumanlarida (111,5 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining ulushi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 557,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 92,3 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 68,1 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 26,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,4 % ni tashkil etdi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 450,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 212,8 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (92,8 %) katta salmoqqa egadir.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 41,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 108,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,5 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalombor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 81,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etadi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-sentyabr oylari bilan taqqoslaganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 9,5 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 2246,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 492,5 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 118,9 % qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, *ming so'm*




Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (11148,1 ming so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 132,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (618,2 ming so'm), Xovos (763,7 ming so'm) va Guliston tumanlarida (819,0 ming so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (132,7 %), Sayxunobod (110,0 %) va Mirzaobod tumanlarida (109,8 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel: (71) 230-86-31